

JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

№ 2 (7) 2022 <http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.12. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.13. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф14. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.15. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц16. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.17. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц18. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.19. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)20. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц21. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)22. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц23. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц24. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц25. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**RESPUBLIKAMIZ TA'LIM TIZIMIDA PISA XALQARO BAHOLASH
DASTURINI QO'LLASHNING AMALIY AHAMIYATI VA UNDA
KUTILGAN NATIJALAR**

D. Azimova-dotsent

H. Saidahmedova-magistr

Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: PISA xalqaro baholash dasturi bo'yicha tadqiqotlar maktab o'quv dasturini o'rganishga emas, balki o'quvchilarning maktabda olgan bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini baholash, ularning dunyoqarashini kengaytirish, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishga qaratilgan. Bularning barchasi PISA xalqaro baholash dasturining nafaqat maktab ta'limini yaxshilash, balki oliy ta'limni rivojlantirish uchun ham dolzarbligini aniqlaydi.

Kalit so'zlar: PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Milliy markaz, ijodiy hamkorlik, o'qish savodxonlik, matematik savodxonlik, tabiiy- ilmiy savodxonlik.

Bugungi kunda jadal su'atda rivojlanib borayotgan ilm-fan taraqqiyoti har bir sohani doimiy takomillashtirish va rivojlantirishni taqazo etadi, buning uchun esa bu ishni mukammal amalga oshiruvchi yetuk kadrlarni tayyorlash zarur hisoblanadi. Bunda ta'lim tizimini sifatli tashkil etish, o'qitish va baholash jarayonlarini xalqaro talablar darajasida tashkil etish lozim.

Ta'limning xalqaro miqyosda rivojlanishi bilan uning sifatini umumlashtirilgan baholash muammolari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bilim poydevorini mustahkam qurayotgan jamiyat mustaqil ravishda muhim va mas'uliyatli qarorlar qabul qila oladigan ko'plab mutaxassislarni talab qiladi. Ta'lim sifatini baholashning an'anaviy usullari, asosan maktab o'quv dasturida nazarda tutilgan bilim va ko'nikmalarni sinash bilan chegaralanadi, kompetentsiyani baholashga asoslangan yangi usullar bilan almashtirilishi kerak. Shu nuqtai nazardan, maktab o'quvchilarining PISA (Xalqaro talabalarni baholash dasturi) tadqiqotlar natijalari o'ta muhim bo'lib tuyuladi, uning ahamiyatini malakalarning shakllanish darajasini aniqlashda ko'rishimiz mumkin.

PISA so'zi XXI asr o'rtalarida mamlakatimizga kirib keldi. Bu test haqida hali ko'pchilik ma'lumotga ega emas, PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment – Xalqaro talabalarni baholash dasturi.) PISA tadqiqotini

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) o'tkazadi. Bu dasturning tadqiqot ob'ekti 15 yoshli o'quvchilarning talimdagi yutuqlari. Ob'ekt sifatida aynan nima uchun 15 yoshli o'quvchilarni tanlagan degan savolga javob tariqasida shuni aytaolishimiz mumkin, chunki ko'p mamlakatlarda majburiy ta'lim shu yoshda tugashi va turli mamlakatlarda o'qish dasturining umumiy jihatlari kopligi bilan izohlanadi. Bitta mamlaktdan tadqiqot uchun shu yoshdagi o'quvchilarning 2% i tanlab olinadi.

Dastlab PISA dasturi 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta amalda qo'llanilgan. Unda o'quvchilarning bilim sifati o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha monitoring qilinadi va 1000 ballik tizimda baholanadi. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Hozirgi kungacha jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018 yillar) PISA dasturi bo'yicha testlar o'tkazilgan bo'lib, keyingi sinovlar 2022 yilda bo'lishi rejalashtirilgan. Aslida mamlakatimiz 2021 yildan bu dasturga qo'shilishga tayyorgarlik ko'rayotgan edi. 2020-yilning aprel-may oylarida tajriba-sinov jarayonlari, asosiy tadqiqotlar esa joriy yilning aprel-may oylarida o'tkazilishi belgilangan edi. Ammo hozirda dunyo bo'ylab global muammoga aylanib ulgurgan koronavirus bilan bog'liq pandemiya sharoitida rejalashtirilgan tadqiqotlar vaqtincha to'xtatildi. Bu haqda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Matbuot xizmati [ma'lum qildi](#). Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) kabi tashkilotlar tomonidan tadqiqotga a'zo mamlakatlar, dasturning boshqaruv kengashi a'zolari, xalqaro ekspertlar kengashi va konsorsiumlar hamda mamlakatlardagi Milliy markazlar ishtirokida tadqiqotlarning tashkil etilish muddatlarini belgilash bo'yicha muhokamalar olib borildi. Bu muhokamalardan so'ng PISA dasturi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish muddatlari to'g'risida xalqaro tashkilotlar tomonidan qarorlar qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra:

- PISA dasturi doirasidagi tadqiqotlar bir yil muddatga kechiktirildi. Bunda 2020-yilda mo'ljallangan tajriba-sinovlar 2021-yilning aprel-may oylarida, 2021-yilga mo'ljallangan asosiy tadqiqot esa 2022-yilning aprel-may oylarida o'tkaziladi.
- tadqiqotning 3 yillik davriyligini inobatga olgan holda, 2024-yilga mo'ljallangan tadqiqotlar ham, o'z navbatida, 2025-yilga ko'chirildi[1].

Ma'lumki, Prezidentimiz tomonidan yurtimizda ushbu tadqiqotlarga tayyorgarlik bo'yicha bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “PISA” (The Programme for International Student Assessment) O'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2022-yilda birinchi 70 talikka, 2025-yilda 60 talikka va 2030-yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan[2].

Bu dasturdan qatnashishdan maqsad o'quvchilarning bilimni baxolash yoki testlarni ishlay olish qobiliyatini aniqlash emas, balki o'quvchilarimizda texnologiyalar asri ko'nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ertangi kun uchun munosib avlodlar qoldirish, hozirgi globallashib borayotgan zamon uchun yetuk shaxslar yaratishdan iboratdir.

PISA testlari oltita yo'nalish bo'yicha o'tkaziladi: O'qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, ijodiy hamkorlik, muammolarni birgalikda hal qilish va moliyaviy savodxonlik yo'nalishlari. O'zbekiston 2022 -yilda to'rt yo'nalish: O'qish, matematik savodxonlik, ijodiy hamkorlik va tabiiy-ilmiy fanlar yo'nalishlari bo'yicha testlarda qatnashishni rejalashtirgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, PISA dasturi bo'yicha tadqiqotlar maktab o'quv dasturini o'rganishga emas, balki o'quvchilarning maktabda olgan bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini baholash, ularning dunyoqarashini kengaytirish, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishga qaratilgan. Bularning barchasi PISA dasturining nafaqat maktab ta'limini yaxshilash, balki oliy ta'limni rivojlantirish uchun ham dolzarbligini aniqlaydi. Aniq topshiriqlarni ko'rib chiqayotganda, PISA yondashuvlari oliy ta'limda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirish uchun o'ziga xos asos yaratishi yanada ravshan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. “PISA” va “PIRLS” tadqiqotlarini o'tkazish muddatlari o'zgardi. 26.06.2020. “Xalq so'zi”. (<https://xs.uz/uz/post/pisa-va-pirls-tadqiqotlarini-otkazish-muddatlari-ozgardi>).

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. T. 2019 yil 29 aprel.

3. Концепция направления «математическая грамотность» исследования PISA-2021. (http://www.ivege.ru/content/work/international_studies/pisa).

4. PISA va TALIS tadqiqotlari O'zbekistonga nima beradi?. “Ma'rifat”. 18.12.2019. (<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/3953.htm>)

5. PISA: все, что нужна знать о глобальном исследовании образования. (<http://idum.uz/ru/archives/13414>)